Xodjaniyazova Shoxsanam Ergash qizi	
O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umurlar" romanida inson va uning ruhiyati	660
Xolmatova Ro'zixon Akmaljon qizi	
Talabalarda liderlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar	663
Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna	
Creative Games and Project-Based Learning in Physics Lessons	666
Yorqinbek Abduraimjanovich Mamatokhunov	
Теоретические основы и практическое применение компетентностного подхода в обучении физике	670
Абдулхаким Хакимов	
Роль инклузивной игровой деятельности в социальной адаптации детей с инвалидностью дошкольного возраста	673
Плиева Руслана Владимировна	
"Beruniy asri" yoxud Beruniyning xarizmatik qobiliyati va uning boqiy ilmiy merosi	676
Saifnazarov Ismoil, Sultonov Tursinboy	
Значение наблюдения и педагогической диагностики в инклузивном образовании.....	682
Тургунова Нилуфар Абдусаломовна	
Maktabgacha yoshidagi bolalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish texnologiyalari	685
Xaydarova Shaxlo Narzullayevna, Azimova Gulmira Xayrullayevna	
Диалог культур в рассказе "Келинка" галины ширяевой: гендерная и этнокультурная перспектива..	689
Чернова Татьяна Алексеевна	



O'QUV-TARBIYAVIY VAZIYATLARNI LOYIHALASHTIRISH ASOSLARIDA TALABANING TARBIYAVIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Temirov Ma'ruf Shuhrat o'g'li

Toshkent davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0008-1543-2427>

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars jarayonini tashkil etishda talabalardagi tarbiyaviy jihatlarni shakllantirishga oid qo'idalar qismлага bo'lib keltirib o'tilgan. Unda talabada dars jarayonida hamda darsdan tashqari o'zini tuta bilish odobi yoritib berilgan. Tarbiyaning shakllari, uning qonuniyatlari hamda ko'satkichlari atroflicha tahvil qilingan. Tarbiya – bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan, shuningdek, uning o'quv jarayonidagi barcha ko'rinishlarda – bilim, his-hayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki, o'ziga xos jihatlari, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir.

Talaba o'qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qaysi usulda, qanday munosabatlar sharoitida va qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilishi, bu jarayonga erishish uchun esa o'zini muntazam rivojlantirib borishi zarur. Shu bilan birga, talaba o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini unutmasligi kerak. Talabalar yaqin kishilarining (ota-onasi, o'qituvchilari, tarbiyachilarining) munosabatlarini yaxshi tushuna olsalar, bu ularga o'quv faoliyatida yordam bera oladi. Shundagina talaba pedagogik ta'sirga ochiq va moyil bo'ladi. O'qituvchi – do'st, murabbiy, yo'l boshlovchi bo'lgandagini talabalar o'zlarining ichki olamlarini ochib ko'rsata olishlari mumkinligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, o'qituvchi, talaba, shaxs, individ, metod, xulq-atvor, topshiriq, pedagogik talab, o'z-o'zini baholash, tarbiya tamoyillari, tarbiya usullari.

Abstract: In this article, the rules on the formation of educational aspects in students during the organization of the lesson process are presented in parts, highlighting the student's behavior during the lesson and extracurricular self-control. Forms of upbringing are described in detail along with its laws and indicators. Upbringing is the introduction of a person to social experiences, as well as to all manifestations of the educational process – knowledge, emotion, aesthetics, etiquette – and the development of the individual's internal personality traits, capabilities, and potential.

The student wants to learn, to be brought up, to grow, and actively participate in the life of society. The educator must know by which methods, under which relational conditions, and through what pedagogical process the student should be educated, and must develop themselves to achieve this. At the same time, one should not forget that the student is also an active participant in their self-transformation. When students are able to understand the relationships with their close ones (parents, teachers, caregivers), this helps them in their learning activities; only then are they open and receptive to pedagogical influence. Only when a teacher becomes a friend, mentor, and guide can students truly open up and reveal their inner worlds.

Key words: upbringing, student, teacher, personality, individ, method, behavior, assignment, pedagogical demand, self-assessment, upbringing principles, upbringing methods.



Аннотация: В данной статье правила формирования воспитательных аспектов у студентов при организации процесса урока представлены по частям, освещая поведение учащихся в ходе урока и во внеклассном самоконтроле. Формы воспитания подробно раскрываются через его законы и показатели. Воспитание – это приобщение человека к социальному опыту, а также ко всем проявлениям образовательного процесса – знаниям, эмоциям, эстетике, этикету, и развитие внутренних личностных качеств, возможностей и способностей.

Студент хочет учиться, воспитываться, взросльеть и активно участвовать в жизни общества. Педагогу необходимо знать, какими методами, в каких условиях взаимоотношений и через какой педагогический процесс он должен воспитываться, а также развивать себя, чтобы достичь этого. В то же время не следует забывать, что студент является активным участником своей самотрансформации. Когда учащиеся могут хорошо понимать отношения с близкими (родителями, преподавателями, воспитателями), это помогает им в учебной деятельности; только тогда они открыты и восприимчивы к педагогическому влиянию. Только когда учитель становится другом, наставником и проводником, учащиеся могут раскрыть свой внутренний мир.

Ключевые слова: воспитание, студент, учитель, личность, индивидуум, метод, поведение, задание, педагогическое требование, самооценка, принципы воспитания, методы воспитания.

KIRISH

Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, talaba tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim qonun-qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi, chunonchi:

- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan, O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo'lida qilinayotgan fidokorona ishlar bilan bog'lanishi;
- shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash; tarbiyada talaba shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
- tarbiyada talabalarning yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Talaba o'qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qanday usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilishi kerak. Shu bilan birga, talaba o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi lozim. Talaba yaqin kishilarining (ota-onasi, o'qituvchilari, tarbiyachilarining) munosabatlarini yaxshi bilsa, bu unga ishda yordam beradi. Shundagina talaba pedagogik ta'sir o'tkazishga ochiq va moyil bo'ladi. O'qituvchi – do'st, murabbiy, yo'l ko'rsatuvchi bo'lgandagina talabalar o'zlarining ichki olamlarini ochib ko'rsatadilar. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari ham mavjudki, ular orqali tarbiyaviy ishlarni rejallashtirish yanada e'tibor talab qiladi. Tarbiyaning ko'p qirraliligi, uzoq muddat davom etishi, yaxlit holda va konsentrik shaklda amalga oshirilishi, ikki tomonlarma: o'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan bog'liqligi, qarama-qarshiliklarning ko'pligi kabi xususiyatlarni inobatga olish, mazkur xususiyatlarning tarbiya jarayonini amalga oshirishda har bir o'qituvchi–tarbiyachi diqqat markazida turishini talab qiladi.

Yuqorida aytganimizdek, tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar – bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar – bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faoliyat ko'rsatmasalar, tajriba va bilim o'rgana olmaydilar. Demak, tarbiya usuli – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya usullarini tarbiya metodlari deb ham yuritiladi.

"Metod" so'zi grek tilidan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nosini bildiradi.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

- Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).
- Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).
- Nasihat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istik bildirish, maqullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazo).
- Qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayplash, uyaltirish, qo'rqtish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazo).

Tarbiya usullarini o'rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish, ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir nechta guruhga ajratamiz. Talaba shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur guruh uchun dolzarbligi, talabalarda axloqiy ishonch uyg'otishi, suhbat mazmunga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish lozim.



Talabalar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingen aniq misollar bilan to'liq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Suhbat ham, hikoya ham talabalarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar orqali o'zbek tilida o'tkazilishi kerak. Eng yaxshisi – suhbat va hikoya mavzusini talabalarning o'zlari tanlasin. Bunda suhbatning zavqi shundan ta'minlanadi: talabalar mavzuga befarq qaramaydilar. Talabalar o'z atroflaridagi kishilarda barcha yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va namuna olishlari nihoyatda muhimdir. O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-bobolarimiz o'z farzandlarini har doim yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan: "Qush uyasida ko'rganini qiladi" – juda oddiy, ammo chuqur xulosa.

Topshiriq. Talabalarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Talabalar o'z kuchlarini umumiy ishga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar. Mehnat qilish talabaning xarakterini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab – bu talabaning turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda ishtirok etib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; turli ko'rsatma sifatida yuzaga chiqishi; u yoki bu harakatda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'z-o'zini tarbiyalash usullari. Talabalarning o'zini-o'zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari – ularning ijtimoiy faoliik mavqeini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. Talabalar o'qish, tarbiya va dam olish jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan foydalananadilar. O'z-o'zini tarbiyalash talabaning tashabbuskorligi va mustaqilligini rivojlantiradi. D. R. Farsaxonovaning "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli darsligida o'z-o'zini tahlil qilish shaxsiy fazilatlarni, xatti-harakatlarni o'rganish va ular haqida fikr yuritishga o'rgatishi ta'kidlangan. O'z-o'zini nazorat qilish uchun talaba o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobji odatlarning ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarning kamayib borishi haqida muntazam kundalik yuritadi. O'z-o'zini baholash – talabani o'z qobiliyatini mustaqil ravishda namoyon etishga yordam beradigan muhim omildir. Bu jarayon murakkab bo'lsa-da, talabani bunga yetaricha tayyorlash mumkin. O'z-o'zini baholash talabaning o'z imkoniyatlarini hisoblash, tahlil qilish, o'ziga xolis baho berish va o'zidan qoniqish hosil qilishida yordam beradi.

R. A. Mavlonova, N. Rahmonqulova, B. Normurotova va K. Matnazarovaning "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" nomli darsligida tarbiyadagi rag'batlantirish va jazolash usullari quyidagilarga bog'lab ko'rsatilgan:

- 1) Talabaning kuchi yetadigan, mas'uliyatli topshiriq berish orqali unga ishonch bildirish (talaba o'z qadr-qimmati bilan faxrlanadi);
- 2) Maqtash (ota-onalar va talabalar jamoasi oldida);
- 3) Esdalik sovg'asi berish (kitob, ruchka, o'quv asbobi va boshqalar);
- 4) Maqtov yorlig'i berish;
- 5) Stipendiya bilan taqdirlash;
- 6) Hurmat taxtasiga fotosuratini qo'yish;
- 7) Qo'llab-quvvatlash;
- 8) Mas'uliyat va jamoa minnatdorchiligi;
- 9) Safda birinchi o'rinda turish;
- 10) Musobaqalarda bayroq ko'tarish;
- 11) Gazetada yoki radioda e'lon qilish va hokazo.

Har qanday rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanishi lozim. Jazolash – bu tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo talaba va butun guruh manfaatini ko'zlab, oxirgi tarbiya usuli sifatida qo'llanilishi kerak. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash, talabani qo'rqtish va g'azablantirish man etiladi. Aks holda, talaba qo'rqqanidan yolg'on gapirishga o'rganadi va ikkiyuzlamachi bo'lib qoladi. Ta'limda qo'llanishi mumkin bo'lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi: tanbeh berish – eng yengil jazo chorasiidir. O'qituvchi talabaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi. Bu haqda kundalikda qayd etish mumkin. Ogohlantirish – nomaqbtlar xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarbiya tamoyillari–tarbiyachining tarbiya jarayonida asoslanishi va rioya qilishi lozim bo'lgan asosiy qoidalardir.

MILLIY TARBIYA TAMOYILLARI	
○ Tarbiyaning yuksak ma'naviyatli shaxsn shakllantirishga yo'naltirilganligi.	○ Tarbiyani mehnat bilan bog'lash
○ Tarbiyaning maqsadga yo'naltiril-ganligi va g'oyaviyligi.	○ Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish
○ Tarbiyada demokratik va inson- parvarlik g'oyalarning ustunligi	○ Tarbiyada talabaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish
○ Tarbiyada milliy va umumbashariy qadriyatlarning ustunligi	○ Jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash
○ Tarbiyada izchillik vatizmlilik	○ Tarbiyada talaba xulqidagi ijobjiy sifatlarga tayanib salbiy tomonlarni yo'qotish
○ Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish	○ Tarbiyada hududiy xususiyatlarini inobatga olish

1-rasm: Milliy tarbiya tamoyillari

Xayfsan berish – agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, talaba belgilangan intizomni buzaversa, talabaga xayfsan e'lon qilish mumkin. Bunda uning aybi qay darajada ekanligi va intizomni qanday sharoitda buzgani e'tiborga olinadi.

Uyaltirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri – uyat, or-nomus, sharm-hayo hisoblanadi. Odadta, odamda izzat-nafs, odamiylik qanchalik kuchli bo'lsa, avvalo o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat ham shunchalik kuchli bo'ladi. Talabalarni tarbiyalashda ushbu xislatlarni ehtiyyotkorlik bilan o'stirish lozim. Biroq doimiy uyaltirish va qizartirish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnidida foydalanish zarur, shundagina ijobji natijaga umid qilish mumkin.

Tarbiya prinsiplari. Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, talaba tarbiyasining ham bir qator muhim qonun-qoidalari mavjud bo'lib, ularga amal qilish tarbiya ishining samaradorligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda tarbiyaning quyidagi prinsiplari farqlanmoqda: tarbiyaning bir maqsadga yo'naltirilganligi; tarbiyaning hayot, mehnat, O'zbekistonimiz mustaqilligi va gullab-yashnashi yo'lida qilinayotgan fidokorona ishlar bilan bog'liqligi; shaxsn jamoada, jamoa orqali tarbiyalash; tarbiyada talaba shaxsini hurmat qilish va unga nisbatan talabchanlik; tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi va birligi; tarbiyada talabalar yoshiga xos xususiyatlarni hisobga olish.

Shaxsn jamoada va jamoa orqali tarbiyalash prinsipi. Ilg'or o'qituvchilar tajribasi shuni ko'rsatadi, talabalar ahil jamoा sifatida uyushganida tarbiya ishlarini olib borish ancha osonlashadi va muvaffaqiyat kafolatlanadi. Yaxshi uyushgan, sog'lom jamoada talabalar fikri katta tarbiyaviy kuchga aylanadi va o'qituvchilarning tayanchi bo'ladi. O'z manfaatini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirish, bir-biriga yordam berish kabi fazilatlar aynan jamoada shakllanadi. Talabalar jamoasida har bir shaxsning kamol topishi, sınıf va butun ta'lim muassasida do'stlilik rishtalarini mustahkamlash uchun qulay muhit yaratilishi lozim. Ba'zan tarbiya jarayonida jamoa bilan shaxs o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ham bartaraf etishga to'g'ri keladi. Talabalarda jamoa manfaatini ko'zlash, jamoatchilik hissi birgalikda o'qish va mehnat qilish orqali mustahkamlanadi. O'qituvchi va tarbiyachi o'z faoliyatida har doim talabalar jamoasiga, ayniqsa faol a'zolariga tayanmog'i, ularni jamoaviy ishga jalb etib, jamoachilik ruhini singdirib borishi zarur.

Tarbiyada talaba shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik prinsipi. Tarbiyachi talabalardan nimanidir talab qilib, keyin esa bu talabni unutsa yoki o'zi unga zid ish tutsa, bu holat tarbiyaning samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday tarbiyachilar "so'zida turmaydigan" deya tan olinadi. Masalan, u topshiriq berib: "Bilib qo'yinglar, vazifa tekshiriladi va baholanadi", – desa, lekin amalda bu ishni bajarmasa, talabalar nazarida ishonchni yo'qotadi. Agar talabalar tartibni ozgina buzsa, u ularni do'q-po'pisa bilan qo'rqtadi, ammo hech



qanday chora ko'rmaydi. Yoki biror qiziqarli tadbirni va'da qiladi-yu, tez orada bu va'dasini unutadi. Natijada talabalar orasida unga nisbatan izzat va hurmat shakllanmaydi.

Har bir pedagogning so'zi va ishi bir xil bo'lishi zarur. Tarbiyachi o'z so'zida izchil va qat'iy bo'lishi kerak. Bu har bir tarbiyachi uchun qonun sifatida tan olinishi lozim. Tarbiya berishda talabalar yoshi bilan bir qatorda ularning individual xususiyatlarini ham hisobga olish muhim. Yoshi, bo'yи bir xil bo'lsa-da, talabalarning mijozи, fazilatlari, qobiliyatи, qiziqishlari har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulq-atvori, o'qishi va mehnat faoliyatida aks etadi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tarbiyaviy ishlarning izchilligi, tizimliliği hamda birligi prinsipi. Avvalo, ta'lim va tarbiya bir maqsadni – barkamol inson shaxsini tarbiyalashni nazarda tutadi. Ya'ni ta'lim ishi tarbiya bilan birga qo'shilib ketadi va bir-birini to'ldirib, mukammallashtirib boradi. Dars jarayonida olib borilgan tarbiyaviy ishlar sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bilan qo'shiladi.

Talabalar bilan olib boriladigan har bir tarbiyaviy ish butun tarbiya ishlaring ajralmas bir qismi sifatida amalga oshirilgan taqdirdagina ta'siri kuchli bo'ladi. Tarbiya ishidagi izchillik va tizimlilik shundan iboratki, har bir tarbiya ishi maktabning umumiy tarbiyaviy rejasiga asosan ma'lum izchillikda amalga oshiriladi, oldingi ishlarning mantiqiy davomi sifatida tarbiya sohasida qilinayotgan ishlarni rivojlantiradi, mustahkamlaydi va yanada yuqori darajaga ko'taradi.

Tarbiya berishda tizimlilik qoidasi tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'lnarning – oila va maktab, talabalar va yoshlar tashkiloti, jamoatchilik, mahalla faollari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari va ishlab chiqarish jamoalarining, keng jamoatchilikning hamjihatlik va bamaslahat ish ko'rishini nazarda tutadi. Tarbiya ishidagi bu hamjihatlik va hamkorlikni ta'min etishda maktab asosiy rol o'ynaydi. Maktab yuqorida aytilgan muassasalar bilan mustahkam aloqada bo'lib, tarbiya sohasida bahamjihatlikda ishlashga erishadi.

Tarbiya jarayonida tizimlilik va izchillikni ta'min etadigan muhim shartlardan biri – tarbiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va mustahkamlashda uyg'unlikka rioya etishdir. Tarbiyaviy ishlarning hammasida talabalarda mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va odatlarga, hamda ularning turmush tajribalariga suyanish lozim.



2-rasm: Tarbiyaning tarkibiy qismlari

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari hamda ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituv-chining talaba bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya jarayoni – tarbiya jarayonining mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va xatti-harakatni asta-sekin ko'nikmaga aylantirib borish lozim.

Tarbiya – keng ma'noda u yoki bu sifatlarning yoki ijtimoiy guruhlarning maqsadlariga muvofiq odamlarning yangi avlodlariga avvalgi avlodlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini uzatish vositasi bilan jamiyatning rivojlanishini ta'minlovchi vositadir.

Tarbiya usuli – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usul-laridir.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda jahoning barcha rivojlangan, ilg'or mamlakatlarida ta'lismiz qayta isloh etishga katta qiziqish bilan qaralmoqda. Buning asosida inson paydo bo'lgan kundan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan tarbiya hamda o'qitishni yaxlit, ajralmas tizim deb qarash va uni amaliyotga tatbiq etish zarurati yotadi. Ushbu talablarga javob berish hamda ta'lismiz sohasini rivojlantirish uchun, albatta, talabaning tarbiyaviy faoliyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda yosh ota-onalar, ijtimoiy muhit va talabaning olami o'zaro bog'langan va harakatdagi tizimni tashkil etishi e'tiborga molikdir. Bu tizimni o'rganadigan fanlar yangi yondashuvlar, tamoyillar, metod va qarashlar bilan yanada boyitib borilishi lozim.

Bunday zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar, ta'lismizning modernizatsiya qilinishi, ta'lismiz jarayonida tarbiyani ham uyg'unlikda tarkibiy jihatdan qayta qurish – ta'lismiz, fan, texnika va texnologiyalar, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lismiz dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Djurayeva S.N., Turdiyeva N.S., Baxronova A.I. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. – Buxoro: 2021.
2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N., Normurotova B., Matnazarova K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPI Rizografida nashr, 2014.
3. Jamolova G.M. Talabalarda milliy identifiklikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish. – <http://journals.nuu.uz/>
4. Абдуллаева Б.С. Формирование информационной компетентности школьника. Formation of Information Competence of Students // Eastern European Scientific Journal. AURIS Kommunikations- und Verlagsgesellschaft mbH, Düsseldorf, Germany: Ausgabe 3, 2018. – Р. 183–187.
5. Ветров Ю.П., Игропуло И.Ф. Психолого-педагогическая подготовка преподавателей вуза к использованию методов интерактивного обучения // Высшее образование в России. – 2012. – №5. – С. 89–95.
6. Inomov D. Umumiy pedagogika. O'quv-uslubiy majmua. – Namangan: 2023.
7. Farsaxonova D.R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o'qitish texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2022. – 136 b.
8. Djurayeva B.R., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lismiz yoshidagi talabalarga ta'lismiz-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2015.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
 - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
 - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03** Maxsus pedagogika
 - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07** Ta'limda menejment
 - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00** Tarix fanlari
 - 19.00.00** Psixologiya fanlari
 - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00** Kimyo fanlari
 - 03.00.00** Biologiya fanlari
 - 09.00.00** Falsafa fanlari
 - 10.00.00** Filologiya fanlari
 - 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.